
15 oktyabr – Xalqaro qishloq ayollari kuni

Shu kunlarda dunyoning boshqa mamlakatlari qatori yurtimizda ham yana bir umumbashariy bayram – Xalqaro qishloq ayollari kuni nishonlanmoqda. Binobarin, BMT Bosh Assambleyasi 2007 yil 18 dekabrda qabul qilgan "Qishloq hududlarida ayollarning ahvolini yaxshilash to'g'risida"gi rezolyusiyaga muvofiq, 15 oktyabr – Xalqaro qishloq ayollari kuni deb e'lon qilingan.

Ushbu sana munosabati bilan Buvayda tuman Madaniyat markazida bayram tadbiri bo'lib o'tdi

Tadbirda Buvayda tuman hokimi Behzodjon Ibragimov so'z olib, mehnatkash buvaydalik onaxonlarni, opa singillarni bayram bilan qutladilar

O'z faoliyati davomida jamoatchilikka o'rnak bo'lib kelayotgan soha hodimlari esdalik sovg'alar hamda tashakkurnoma bilan taqdirlandilar

Shundan so'ng Buvayda madaniyat markazi hodimlari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar tadbirga o'zgacha shukuh bag'ishladi.

2024-10-16 09:03:53